

**HAMID OLIMJON TADQIQOTLARIDA NAVOIY IJTIMOYIY FAOLIYATINING
YORITILISHI**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDU

Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

2-kurs magistranti **Xudoyberdiyeva Muxlisa**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hamid Olimjonning navoiyshunoslikka oid qarashlari asosida Alisher Navoiyning ijtimoiy faoliyati yoritiladi. Muallif Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki adolatli davlat arbobi, jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun xizmat qilgan mutafakkir sifatida talqin etadi. Maqolada "Vaqfiya" va "Mahbub ul-qulub" asarlari tahlili orqali shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Hamid Olimjon, ijtimoiy faoliyat, adolat, davlat boshqaruvi, Vaqfiya, Mahbub ul-qulub, xalqparvarlik, Temuriylar davri, ijtimoiy qarashlar.

**THE COVERAGE OF ALISHER NAVOI'S SOCIAL ACTIVITY IN THE STUDIES
OF HAMID OLIMJON**

Alisher Navoi State University of Tashkent

Literary Studies: Uzbek Literature

2nd-year Master's Student: **Xudoyberdiyeva Muxlisa**

Abstract. This article examines the social activities of Alisher Navoi based on Hamid Olimjon's views in Navoi studies. The author interprets Navoi not only as a great poet, but also as a just statesman and a thinker who served for the development of society and the welfare of the people. Through the analysis of the works "Vaqfiya" and "Mahbub ul-Qulub", the poet's socio-political views are revealed.

Keywords: Alisher Navoi, Hamid Olimjon, social activity, justice, governance, Vaqfiya, Mahbub ul-Qulub, humanism, Timurid period, social views.

Kirish. O'zbek adabiyotining yirik vakili, iste'dodli shoir va davlat arbobi Hamid Olimjon o'zining qisqa umri davomida nafaqat badiiy ijod, balki chuqur ilmiy tadqiqotlar bilan ham shug'ullangan. Uning ilmiy merosida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish alohida o'rin tutadi. Hamid Olimjon 1930-yillarning oxiri va 1940-yillarning boshida Navoiy tavalludining 500 yilligiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida shoir asarlarini nashrga tayyorlash va uning ijtimoiy siymosini xalqqa tanitishda jonbozlik ko'rsatgan. Olim Navoiyni shunchaki o'tmish shoiri emas, balki XV asrning eng yirik mutafakkiri va davlatni boshqarishda adolatni ustuvor bilgan arbob sifatida talqin etgan. Alisher Navoiyning ko'plab asarlarida diniy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy mavzular yetakchilik qiladi.

Tahlil va natijalar. Hamid Olimjon o'zining "O'zbek xalqining ulug' shoiri Navoiy" nomli maqolasida Alisher Navoiy shaxsiyati keng tarixiy va ijtimoiy kontekstda talqin qiladi. Olim Navoiy siymosini besh asr davomida so'nagan ma'naviy cho'qqi sifatida baholar ekan, uning



buyukligi faqat badiiy iste'dodidagina emas, balki jamiyat hayotidagi faol ishtirokida ham namoyon bo'lganini alohida ta'kidlaydi.

Maqolada Navoiy "o'z asrining eng katta shoiri emas, eng katta olimi ham edi"(1:9), deya baholanadi. Bu fikr orqali Hamid Olimjon shoirning davlat va jamiyat ishlaridagi mavqei ko'rsatadi. U Navoiyning tarixchilikni taraqqiy qildirgani, san'atshunoslik, musiqachilik, rassomlik va haykaltaroshlikka rahbarlik qilgani, ilm-fan va madaniyat rivojiga homiylik qilganini qayd etadi.

Hamid Olimjon gaplarining tasdig'i o'laroq, Navoiyning jamiyat hayotiga bo'lgan munosabati, davlat boshqaruvi va xalq farovonligi haqidagi qarashlari uning bir qancha asarlarida, jumladan, "Vaqfiya" asarida o'z ifodasini topgan. Ushbu asarda Navoiy jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligi adolatli boshqaruv, oqilona siyosat hamda xalq manfaatlarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi.

Navoiy jamiyat boshqaruvida adolat va tartibni eng muhim mezon sifatida ko'rsatadi. U davlatning mustahkamligi adolatli siyosat yuritilishi bilan ta'minlanishini qayd etadi. Jumladan, asarda mamlakatda adolat hukm sursa, xalq tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'kidlab, shunday yozadi: "adl suyi bila mulk bo'stonig'a nusrat bergaylar va siyosat qilichi bila kishvar harimidin fitna va oshub shaxsining bo'ynin yugay" (3:6), ya'ni adolat tufayli davlat ravnaq topadi, oqilona siyosat orqali esa jamiyatdagi fitna va tartibsizliklar bartaraf etiladi.

Mutafakkirning fikricha, davlat boshqaruvida asosiy maqsad xalq farovonligini ta'minlashdan iboratdir. Navoiy adolatli boshqaruv natijasida jamiyatda tinchlik va osoyishtalik qaror topishini alohida ta'kidlaydi. Shu bois u davlat arboblari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Asarda xalqning osoyishtaligini ta'minlash davlat boshqaruvining muhim vazifalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Navoiy nazarida adolatli siyosat yuritilgan jamiyatda insonlar tinch va farovon hayot kechiradilar hamda jamiyatda barqarorlik mustahkamlanadi.

Shuningdek, Alisher Navoiy o'z faoliyatida jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish g'oyasini ustuvor deb bilgan. U davlat xizmatini shaxsiy manfaatlar bilan emas, balki xalq manfaatlarini bog'liq holda tushunadi. Bu jihat uning shaxsiyati va ijtimoiy qarashlarining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Navoiy davlat xizmatida halollik, sadoqat va fidoyilik kabi fazilatlarni alohida qadrlaydi. Shu sababli ham u o'z asarlarida davlat arboblari adolatli, xalqparvar va mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Navoiy ijodi bilan bir qatorda amaliy faoliyati orqali ham jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan yirik ijtimoiy arbob sifatida talqin etiladi.

Navoiy o'z asarida jamiyatga xizmat qilish masalasiga ham katta e'tibor qaratadi. U o'ziga berilgan imkoniyat va e'tiborlar qarshisida xalq manfaatlarini uchun faoliyat yuritish zarurligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Bu inoyatlar muqobilasida xizmati topay deb dastu po urmoq mushkil va bedastu polardek boqib turmoq andin mushkulroq." (3:15). Bu fikrlar Navoiyning jamiyat hayotidagi faol pozitsiyasini yaqqol namoyon etadi.

Navoiy jamiyat taraqqiyoti va davlat boshqaruvi masalalari haqida chuqur o'ylab, bu borada mas'uliyatli qarorlar qabul qilish zarurligini ham ta'kidlaydi. Asarda Navoiyning jamiyat ravnaqi yo'lida amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari haqida ham so'z yuritiladi. U ayrim eski binolarni buzdirib, ularning o'rnida madrasa va masjid qurdirganini ta'kidlaydi. Bu haqda asarda quyidagicha yozilgan: "Chun bu muvajjah hayot ko'ngulda ustuvor bo'ldi va bu maqbul andisha xotirda qaror tutti, ul binoyi dayrpayvandni hamvor qilib, o'rnida madrasa bino qilindi va ul asosi kaliso monandni buzub, yerida masjidde solildi." (3:6).



Mazkur jummlar Navoiyning jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirishga alohida e'tibor berganini ko'rsatadi. Madrasa va masjid qurilishi orqali u ilm-fan, ta'lim va diniy-ma'rifiy hayot rivojiga xizmat qilgan.

Shuningdek, Navoiy qurilgan masjidida ibodat va diniy ta'lim muntazam olib borilishi uchun ham sharoit yaratganini qayd etadi. Asarda bu haqda shunday yoziladi: "Va xushxon imom va xushvoz muqri muqarrar bo'ldikim, saloti xamsani mahalla ahli bilan qoim tutub, ul hazrat duosiga mashg'ul bo'lg'aylar." (3:14).

Bu fikrlar Navoiyning jamiyatda diniy-ma'rifiy muhitni mustahkamlashga intilganini ko'rsatadi. U nafaqat binolar qurdirgan, balki ularning faoliyatini yo'lga qo'yish, ibodat va ta'lim ishlarini tashkil etishga ham e'tibor qaratgan.

Shunday qilib, "Vaqfiya" asaridagi ma'lumotlar Alisher Navoiyning jamiyat hayotida faol ishtirok etganini, ma'rifat va ilm-fan rivoji uchun muhim bunyodkorlik ishlarini amalga oshirganini tasdiqlaydi. Bu esa uning o'z davrida nafaqat adabiyot, balki jamiyat taraqqiyoti va madaniy hayot rivojiga ham katta hissa qo'shgan yirik tarixiy shaxs bo'lganini ko'rsatadi.

Hamid Olimjon "Navoiy va xalq" maqolasida Alisher Navoiy faoliyatini XV asr Temuriylar davridagi murakkab siyosiy-ijtimoiy vaziyat fonida tahlil qiladi. Hamid Olimjonning fikricha, Navoiy yashagan davr siyosiy parokandalik, iqtisodiy zaiflashuv va saroy intrigalari kuchaygan davr edi. Temuriylar davlatining markazlashuv asoslari yemirilib, ichki nizolar avj olgan bir paytda shoir nafaqat adabiyot maydonida, balki davlat boshqaruvi jarayonida ham faol ishtirok etgan.

Maqolada 1470-yilda Hirotda yuz bergan dehqonlar qo'zg'oloni alohida tarixiy epizod sifatida ko'rsatib o'tiladi. Husayn Boyqaroning og'ir soliq siyosati va amaldorlar zulmi natijasida yuzaga kelgan bu harakat davrning ijtimoiy tangligini ochib beradi. Muallifning yozishicha, ana shunday vaziyatda hukmdor xalq bilan muloqot qila oladigan shaxs sifatida Navoiyni tanlaydi. Biroq Navoiy faqat vositachilik bilan cheklanmay, qo'zg'olonchilarning ayrim talablarini asosli deb topadi hamda ayrim amaldorlarning jazolanishiga sabab bo'ladi. Bu hol shoirning xalq manfaatlarini himoya qilganini ko'rsatadi.

Hamid Olimjon Navoiyning saroy va xalq o'rtasidagi murakkab pozitsiyasini chuqur ochib beradi. Shoir davlat arbobi bo'lishiga qaramay, mavjud ijtimoiy tuzumdagi illatlarni tanqid qilishdan tiyilmagan. Tadqiqotchi "Mahbub ul-qulub" asarining to'rtinchi fasli "Zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida" qismidan: "Mulk buzuqlig'idin zamirig'a jamiyat va ulus parishonlig'idin hotirig'a amniyat" (2:12) kabi gaplar keltirish orqali zolim podshohlarning zulmi fosh etilganini tahlil qiladi.

Vuzaro haqida esa "Bular jumlasini chiyonlar, xaloyiqqa yetkurur ziyonlar" (2:13) degan keskin baholar berganini ta'kidlaydi.

Navoiyning mazkur jumlasini tahlil qiladigan bo'lsak, zolim hukmdorning ichki dunyosini ochib beradi. Oddiy, adolatli hukmdor uchun davlatning buzilishi va xalqning parishonligi iztirob manbai bo'lsa, zolim podshoh uchun aksincha — bu holat uning "jamiyati" va "amniyati", ya'ni xotirjamligidek tasvirlanadi. Shoir shu yo'l bilan hukmdor mas'uliyatini eslatadi: agar podshoh adolatli bo'lmasa, davlat buziladi, xalq tarqoqlashadi. Navoiy nazarida davlatning asosiy maqsadi — xalq tinchligi va farovonligi.



Navoiyning muftiy va diniy rasmiylarga munosabati ham tanqidiy ruhda ifodalangan. “Bir sabat uzum uchun bir bog‘ni kuydurmakdin g‘ami yo‘q...” (2:21) degan satrlarni keltirish orqali diniy idoralardagi riyokorlik va adolatsizlikni ko‘rsatadi. Bu fikrlar shoirning jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarni axloqiy mezon asosida baholaganini tasdiqlaydi.

Navoiyning bu gaplari kuchli badiiy mubolag‘a asosida qurilgan bo‘lib, kichik foyda uchun katta zarar yetkazish illatini ifodalaydi. “Bir sabat uzum” — arzimas manfaatni, “bir bog‘ni kuydurmak” esa jamiyat, din va adolat tizimiga yetkazilgan ulkan zararni anglatadi. Navoiy bu orqali shaxsiy manfaatni xalq va din manfaatidan ustun qo‘ygan kimsalarni fosh etadi. Unga ko‘ra, bunday mufti nafaqat bir kishiga, balki butun jamiyatga zarar yetkazadi. Bu jumlar orqali Navoiyning xalq manfaatini himoya qilganini, adolat va diyonatni ustuvor qo‘yanini, ijtimoiy illatlarni ochiq tanqid qilganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Hamid Olimjonning navoiyshunoslikka oid maqolalari Alisher Navoiyning nafaqat buyuk shoir, balki jamiyat taraqqiyoti va xalq baxti uchun qayg‘urgan yirik ijtimoiy arbob ekanini ilmiy asoslab beradi. Navoiyning “Vaqfiya” va “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida ilgari surilgan adolat, halollik va xalqparvarlik g‘oyalari bugungi kun uchun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu esa mutafakkir merosining asrlar osha yashashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olimjon, Hamid. Mukammal asarlar to‘plami. 10 tomlik. 5-tom. — Toshkent: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1982.
2. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. — Toshkent.
3. Navoiy, Alisher. Vaqfiya. — Ziyoz.uz elektron kutubxonasi.

